

## “Mahalla bilan hamkorlik”

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-sonli Farmoni, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 29 -apreldagi 202-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash yuzasidan, Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi “Shaxrisabz” M.F.Y., bilan TIQXMMI “Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish” fakulteti hamkorligida Prezidentimizning 5 ta muhim tashabbusi doirasida sportning futbol turi bo'yicha mahalla yoshlari ishtirokida futbol o'yini o'tkazildi. Ishtirokchi yoshlarga kitoblar taqdim etildi.



Tadbirda “Shaxrisabz” mahalla raisining xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosari Karabaeva Matluba Sobirovna hamda “Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish” fakultetining Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari J.Turdiyev, “Axborot texnologiyalari” kafedrasini mudiri Z.Abdullaev, kafedra dotsenti X.Karimova, Sh.Ziyaeva va K.Kubyashevlar ishtirok etishdi. Shundan so'ng, mahallada yashovchi nogironligi bo'lgan yoshlarning yashash uylariga borilib, ularning xolidan xabar olindi va sovg'alar ulashildi.



**“SXTE va B” fakulteti dekani o'rinbosari J.Turdiyev ma'lumoti  
TIQXMMI matbuot xizmati**